

**OTLI BIRIKMALARNING STRUKTUR-SEMANTIK XUSUSIYATLARI****Eshtemirova Fotima Komiljon qizi***Samarqand davlat chet tillar instituti talabasi***Annotatsiya:**

*Mazkur maqolada o'zbek tilidagi otli birikmalarning struktur-semantik xususiyatlari tahlil qilinadi. So'z birikmasining sintaktik tabiati, uning grammatik va semantik jihatlari yoritilib, otli birikmalarning tuzilish shakllari hamda bog'lanish usullari ilmiy asosda izohlanadi. Shuningdek, boshqaruv, moslashuv va bitishuv munosabatlarining otli birikmalar shakllanishidagi o'rni ochib beriladi. Tadqiqotda otli birikmalarning nutqdagi funksional imkoniyatlari, ularning ifodalilik va aniqlikni ta'minlashdagi ahamiyati ko'rsatib o'tilgan. Tilshunos olimlarning so'z birikmasiga oid nazariy qarashlari tahlil qilinib, zamonaviy tilshunoslik nuqtai nazaridan umumlashtirilgan xulosalar berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *otli birikma, so'z birikmasi, sintaksis, struktur-semantik tahlil, boshqaruv, moslashuv, bitishuv, hokim va tobe komponent, qaratqich-qaralmish, grammatik munosabat.*

**СТРУКТУРНО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ИМЕННЫХ СЛОВСОЧЕТАНИЙ****Эштемирова Фотима Комилжон кизи***Студентка Самаркандского государственного института  
иностранных языков***Абстрактный:**

*В данной статье анализируются структурно-семантические особенности именных словосочетаний в узбекском языке. Освещаются синтаксическая природа словосочетаний, их грамматические и семантические особенности, а также научно обосновываются формы построения и способы связи именных словосочетаний. Особое внимание уделяется роли управления, согласования и примыкания в формировании именных словосочетаний. В исследовании рассматриваются функциональные возможности именных словосочетаний в речи, а также их значение в обеспечении точности и выразительности высказывания. Анализируются теоретические взгляды лингвистов на проблему словосочетания и формулируются обобщённые выводы с позиций современной лингвистики.*



**Ключевые слова:** *именные словосочетания, словосочетание, синтаксис, структурно-семантический анализ, управление, согласование, примыкание, главное и зависимое слово, грамматические отношения.*

Otli birikmalar o'zbek tilida so'z birikmalarining muhim turlaridan biri bo'lib, ular hokim bo'lagi ot yoki otlashgan so'z bilan ifodalangan sintaktik birliklardir. Mazkur birikmalar nutqda predmet, hodisa yoki tushunchalarni aniqlash, izohlash va kengaytirish vazifasini bajaradi. Otli birikmalarining asosiy xususiyatlari ularning struktur (tuzilish) va semantik (ma'no) jihatlarining o'zaro uyg'unligida namoyon bo'ladi. Otli birikmalarining struktur xususiyatlari Otli birikmalar kamida ikki mustaqil so'zning tobelanish asosida birikishidan hosil bo'ladi. Bu yerda hokim komponent ot bo'lib, tobe komponentlar unga turli grammatik vositalar orqali bog'lanadi. Birinchidan, otli birikmalar tuzilishiga ko'ra sodda va murakkab turlarga ajratiladi. Sodda otli birikmalar ikki komponentdan iborat bo'lib (katta uy, yangi daftar), murakkab otli birikmalar esa uch yoki undan ortiq komponentni o'z ichiga oladi (qiziqarli badiiy asar, yangi qurilgan zamonaviy bino). Murakkab tuzilmalarda aniqlovchi elementlar ko'paygan sari mazmun aniqlashadi va kengayadi. Ikkinchidan, otli birikmalar bog'lanish usuliga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi: Moslashuvli birikmalar – tobe bo'lak hokim bo'lakka egalik va kelishik qo'shimchalari orqali bog'lanadi (talabaning kitobi, mening do'stim). Bu turdagi birikmalar egalik va tegishlilik ma'nolarini ifodalashda muhim ahamiyatga ega. Bitishuvli birikmalar – komponentlar o'zaro qo'shimchasiz, yonma-yon joylashish orqali birikadi (temir eshik, oq gul, tez yordam mashinasi). Bunda grammatik vositalar ishtirok etmaydi, munosabat kontekst orqali anglashiladi. Boshqaruvli birikmalar – hokim so'z tobe bo'lakdan ma'lum kelishik shaklini talab qiladi. Bu tur otli birikmalarda kamroq uchrasa-da, ayrim holatlarda kuzatiladi. Uchinchidan, otli birikmalar tarkibida turli so'z turkumlari aniqlovchi vazifasida kelishi mumkin. Jumladan, sifat (chiroyli qiz), son (ikki talaba), olmosh (mening kitobim), sifatdosh (kelgan mehmon) kabi birliklar o'zaro aniqlab, uning mazmunini boyitadi. Otli birikmalarining semantik xususiyatlari otli birikmalar turli semantik munosabatlarni ifodalash xususiyatiga ega. Bu munosabatlar orqali predmet va hodisalarning o'zaro aloqasi aniqlanadi. Birinchi navbatda, otli birikmalar belgi (atributiv) munosabatni ifodalaydi. Bunda aniqlovchi predmetning rangini, hajmini, xususiyatini bildiradi (yashil barg, katta bino, aqlli o'quvchi). Ikkinchidan, ular egalik munosabatini ifodalashi mumkin (uning kitobi, o'quvchining daftari). Bu holatda predmetning kimga yoki nimaga tegishli ekani ko'rsatiladi. Uchinchidan, otli birikmalar qism-butun munosabatini bildiradi (daraxtning shoxi, uying tomi). Bu turdagi birikmalar predmetning tarkibiy qismlarini ifodalashga xizmat qiladi. To'rtinchidan, material yoki kelib chiqish munosabati ham ifodalanadi (temir darvoza, oltin uzuk), bunda predmetning nimadan yasalganligi ko'rsatiladi. Shuningdek, otli birikmalar makon va zamon munosabatlarini (shahar markazi, yozgi ta'til), hamda



maqsad va vazifa munosabatlarini (ish xonasi, o'quv quroli) ifodalash imkoniyatiga ega. Struktur va semantikaning o'zaro bog'liqligi Otli birikmalarda struktur shakl va semantik mazmun o'zaro chambarchas bog'liqdir. Birikmaning tuzilish turi uning ma'no xususiyatlarini belgilashda muhim rol o'ynaydi. Masalan, moslashuvli birikmalar ko'proq egalik va aniqlik ma'nolarini ifodalasa, bitishuvli birikmalar asosan belgi va sifatlash vazifasini bajaradi. Shuningdek, komponentlar sonining ortishi bilan birikmaning semantik aniqligi ham kuchayadi. Masalan, kitob so'zi umumiy ma'noni bildirsa, yangi kitob aniqroq tushunchani ifodalaydi, qiziqarli yangi kitob esa yanada batafsil ma'no kasb etadi. Otli birikmalar o'zbek tilining sintaktik tizimida muhim o'rin egallaydi. Ular struktur jihatdan turli shakllarda namoyon bo'lib, semantik jihatdan rang-barang munosabatlarni ifodalaydi. Ushbu birikmalar nutqning aniqligi, ifodaliligi va boyligini ta'minlashda muhim vosita hisoblanadi. Shu sababli otli birikmalarni struktur-semantik jihatdan o'rganish tilshunoslikda dolzarb masalalardan biri sanaladi.<sup>54</sup>

Hozirgi davr talablari ona tili ta'limini nafaqat tashkiliy jihatdan, balki mazmunan ham yangicha yondashuv asosida qayta ko'rib chiqishni zarur etadi. Yangilangan ta'lim konsepsiyasida o'quvchilarda mustaqil fikrlashni rivojlantirish, fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda aniq, ravon va mantiqan izchil ifoda eta olish ko'nikmalarini shakllantirish ustuvor vazifa sifatida qaraladi. Shu sababli og'zaki va yozma nutqni rivojlantirish, ularni o'zaro uyg'un holda takomillashtirish ona tili o'qitish jarayonining markaziy yo'nalishiga aylanmoqda. Ma'lumki, grammatikaning muhim tarkibiy qismi bo'lgan sintaksis til birliklarining o'zaro bog'lanishi, ularning nutq jarayonida tutgan o'rni va vazifalarini o'rganadi. Sintaksisning asosiy o'rganish obyektlaridan biri – so'z birikmasidir. So'z birikmasi nutq va tafakkur jarayonida ikki yoki undan ortiq mustaqil ma'noli so'zlarning ma'no, grammatik va ohang jihatdan o'zaro bog'lanishidan hosil bo'lgan birlikdir. U yaxlit mazmunni ifodalaydi, ammo tarkiban qismlarga ajralish xususiyatiga ega. Tilning eng muhim ijtimoiy vazifasiinson fikrini shakllantirish, uni aniq va tushunarli ifoda etish hamda muloqot vositasi sifatida xizmat qilishdan iborat. Til turli birliklardan tashkil topgan murakkab tizim bo'lib, har bir birlik o'ziga xos vazifani bajaradi. Lingvistik tahlil jarayonida bu birliklar alohida ajratilib, ularning xususiyatlari chuqur o'rganiladi. Aynan so'zlarning muayyan qoidalar asosida birikishi natijasida so'z birikmalari va gaplar yuzaga keladi. Sintaksis odatda ikki yirik qismga ajratiladi: so'z birikmasi sintaksisi va gap sintaksisi. Har ikkisi ham nutqning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Teng bog'lanishda so'zlar bir-biriga bo'ysunmaydi, ular teng huquqli holda sanash ohangi yoki teng bog'lovchilar

---

<sup>54</sup> Turniyozov N.Q. "O'zbek tili derivatsion sintaksisiga kirish", – Samarqand,

1990.



yordamida birikadi. Masalan, “erkaklar va ayollar” birikmasida har ikkala soʻz teng munosabatda turadi. Bunday holatda soʻz qoʻshilmasi hosil boʻladi.

Tobe bogʻlanishda esa bir soʻz ikkinchisiga boʻysunadi va uni izohlab keladi. Bu yerda bir soʻz hokim, ikkinchisi esa tobe hisoblanadi. Hokim soʻz – asosiy maʼnoni bildiruvchi birlik, tobe soʻz esa uni aniqlashtiruvchi yoki toʻldiruvchi vazifani bajaradi. Masalan, “shirin olma” birikmasida “olma” hokim, “shirin” esa tobe soʻzdir. Soʻroq odatda hokim soʻzga beriladi va javob tobe soʻz orqali aniqlanadi. Hokim soʻzning qanday turkum bilan ifodalanishiga qarab soʻz birikmalari ikki asosiy turga boʻlinadi: otli birikmalar va feʼlli birikmalar. Agar hokim soʻz ot yoki otlashgan soʻz bilan ifodalansa, bunday birikma otli birikma deyiladi (masalan, baland bino, tez yugurish). Agar hokim soʻz feʼl yoki uning shakllari bilan ifodalansa, feʼlli birikma yuzaga keladi (masalan, kitobni oʻqidi, tez yugurdi). Tilshunos olimlar soʻz va soʻz birikmasi masalasida turlicha qarashlarni ilgari surganlar. Jumladan, Ferdinand de Sossyur soʻz tushunchasini tilning konkret birligi sifatida qarash toʻgʻri emasligini taʼkidlaydi. Bu fikr til birliklarini chuqurroq tahlil qilish zarurligini koʻrsatadi. Soʻz va soʻz birikmasi oʻrtasida oʻxshashlik boʻlsa-da, ular farqli birliklardir. Soʻz umumiy tushunchani ifodalaydi, soʻz birikmasi esa shu tushunchani aniqlashtirib, konkretlashtirib beradi. Masalan, “oʻquvchi” umumiy tushuncha boʻlsa, “aʼlochi oʻquvchi” aniqroq maʼnoni bildiradi.<sup>55</sup>

Soʻz birikmasini qoʻshma soʻz bilan ham aralashtirib yubormaslik kerak. Qoʻshma soʻz bitta soʻroqqa javob boʻladi va yaxlit leksik birlik hisoblanadi, soʻz birikmasida esa har bir komponent alohida soʻroqqa javob beradi. Shu bilan birga, baʼzi soʻz birikmalari vaqt oʻtishi bilan qoʻshma soʻzga aylanishi mumkin. Soʻz birikmasi sintagma va gapdan ham farq qiladi. Sintagma fonetik birlik boʻlib, unda maʼno yetakchi emas, ohang muhim rol oʻynaydi. Soʻz birikmasi esa doimo kamida ikki mustaqil soʻzdan tashkil topadi. Gap esa tugallangan fikrni bildiradi va kesimlik shakliga ega boʻladi. Soʻz birikmasi esa faqat atash maʼnosini ifodalaydi. Tobelanish sintaktik munosabatning muhim koʻrinishi boʻlib, unda bir birlik ikkinchisiga boʻysunadi. Bu jarayonda hokim va tobe qismlar oʻzaro bogʻlanadi. Tobe aloqaning uch asosiy turi mavjud: boshqaruv, moslashuv va bitishuv. Bitishuvda soʻzlar tartib va ohang orqali bogʻlanadi. Bu turdagi birikmalar koʻpincha aniqlovchi-aniqlanmish yoki izohlovchi-izohlanmish munosabatlarida uchraydi. Soʻz birikmasi sintaksisning markaziy tushunchalaridan biri boʻlib, nutqning aniqligi, mantiqiyligi va ifodaliligini taʼminlashda muhim rol oʻynaydi. Uni chuqur oʻrganish nafaqat grammatik bilimlarni boyitadi, balki oʻquvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Shu bois, ona tili taʼlimida soʻz birikmalarini oʻqitishga alohida eʼtibor qaratish zarur.

---

55

Azimova M. Otli soʻz birikmalari va ularning derivatsion xususiyatlari. “SamDChTI” 2025.



Soʻz birikmasiga berilgan taʼrifida N. N. Durnovo shunday taʼkidlaydi: “Soʻz birikmasidagi soʻzlar yasalishidagi bogʻliqlikni ifodalash va bu bogʻlanishning soʻzlovchi fikriga munosabatini koʻrsatish uchun soʻz birikmasiga kiritilgan soʻzlarning aloqasini belgilashning turli usullaridan foydalanilgan. Bular bir-biriga va soʻzlovchining fikriga taʼsir qilib, soʻzlar birikishini soʻz birikmalariga aylantiradi. Ushbu usullar soʻz birikmasi shakllari yoki sintaktik shakllar deb ataladi”.<sup>56</sup>

Oʻzbek tilshunosligida soʻz birikmasi tuzilishiga, grammatik munosabatga kirishishiga hamda ayrim holatlarda soʻzga, baʼzan esa gapga yaqinlashish xususiyatiga koʻra murakkab sintaktik birlik hisoblanadi. Grammatika esa soʻzlarning oʻzaro birikib soʻz birikmasi va gap hosil qilishi, sodda gaplarning qoʻshma gaplarga aylanishi, shuningdek, ularning tuzilishi, maʼnosi va vazifalarini oʻrganadigan tilshunoslik boʻlimidir. Bu jarayonda sintaksis alohida oʻrin tutadi, chunki u bevosita soʻz birikmasi va gapni oʻrganadi hamda uning asosini gap haqidagi taʼlimot tashkil etadi. Soʻz birikmasi ikki yoki undan ortiq mustaqil maʼnoli soʻzlarning oʻzaro maʼno va grammatik jihatdan bogʻlanishi natijasida yuzaga keladi. Bunda soʻzlardan biri hokim, ikkinchisi esa tobe vazifasini bajaradi. Hokim soʻz asosiy maʼnoni ifodalasa, tobe soʻz uni aniqlaydi, toʻldiradi yoki izohlaydi. Masalan, “litsey kutubxonasi” birikmasida “kutubxona” hokim, “litsey” esa tobe soʻz hisoblanadi. Bu bogʻlanishda qaratqich va egalik qoʻshimchalari muhim rol oʻynab, soʻzlarning nutqda faol qoʻllanishini taʼminlaydi. Til birliklari nutqqa kirganda ular turli grammatik vositalar yordamida faollashadi. Xususan, qaratqich kelishigi va egalik qoʻshimchalari soʻzlar oʻrtasidagi munosabatni aniq ifodalashga xizmat qiladi. Baʼzi hollarda qaratqich qoʻshimchasi yashirin holda kelishi mumkin, ammo u mazmun jihatdan baribir mavjud boʻladi va birikmaning toʻgʻri tushunilishiga xizmat qiladi. Otli soʻz birikmalari koʻpincha qaratqich-qaralmish shaklida yoki aniqlovchi-aniqlanmish munosabatida ifodalanadi. Har ikkala holatda ham komponentlar oʻzaro uzviy bogʻlangan boʻladi. Bunday birikmalarda qaratqich qoʻshimchasi muhim vazifani bajarib, soʻzlar oʻrtasidagi sintaktik aloqani yuzaga keltiradi. Baʼzan bu qoʻshimcha ochiq ifodalanmasa ham, mazmunan sezilib turadi.

Soʻz birikmalarining shakllanishida faqat morfologik vositalar emas, balki semantik omillar ham muhim ahamiyatga ega. Ayrim birikmalar hech qanday qoʻshimchasiz, faqat maʼno uygʻunligi asosida yuzaga keladi. Bunday holatlarda soʻzlar oʻzaro mazmun jihatdan mos kelgani uchun bogʻlanadi. Masalan, sifat va otning birikishi orqali hosil boʻlgan birikmalarda bu yaqqol koʻrinadi. Bitishuv usuli orqali yuzaga kelgan birikmalarda soʻzlar tartib va ohang yordamida bogʻlanadi. Bunday birikmalarda komponentlar orasiga boshqa vositalarni kiritish koʻpincha mumkin boʻlmaydi. Shu bilan birga, ayrim hollarda birikmalar kengayib, uch yoki undan ortiq komponentdan

<sup>56</sup> Durnovo N. N. “Grammaticheskiy slovar: grammaticheskie i lingvisticheskie terminy”. – M., 2001. – S. 118.



iborat bo'lishi ham mumkin. Bunday kengaygan birikmalarda qo'shimchalar faol ishtirok etib, ularning tuzilishini murakkablashtiradi. Shuningdek, so'z birikmalarining hosil bo'lishida derivatsion jarayon ham muhim o'rin tutadi. Bu jarayonda ayrim qo'shimchalar operator vazifasini bajarib, so'zlar o'rtasidagi sintaktik bog'lanishni yuzaga keltiradi. Ba'zan birikmada bir nechta grammatik vosita birgalikda qatnashib, murakkab tuzilmani hosil qiladi. So'z birikmasi o'zbek tilida murakkab va ko'p qirrali sintaktik birlik bo'lib, uning tuzilishi va shakllanishi turli grammatik hamda semantik omillar bilan belgilanadi. U so'z va gap o'rtasidagi oraliq birlik sifatida nutqning aniqligi va mazmunan boy bo'lishini ta'minlaydi. Shu sababli so'z birikmalarini chuqur o'rganish tilshunoslikda muhim ahamiyat kasb etadi.

Gap so'z birikmasining sintaktik qurilishi va uning murakkab bo'laklari, xususan, so'z birikmalari (yoki tugallanmagan so'z birikmasi, F. F. Fortunatovning fikricha) ba'zi bir kutilayotgan "shakl–mazmun jarayoni" bilan bog'liqligini tushunishdir.<sup>57</sup> F. F. Fortunatovning so'z birikmasi shakli haqidagi fikrlari A. M. Peshkovskiy tomonidan ham o'rganilgan bo'lib, u so'z birikmalarining sintaktik kategoriyasining empirik doirasini faqat tobe birikmalar bilan cheklamagan. Shu sababli u so'z birikmalari va ularning shakllarini o'rganishni sintaksis fanining predmeti deb hisoblagan.

A. M. Peshkovskiyning fikricha, "So'z birikmasi fizik-psixik birlikdir". Nutqiy faoliyatda so'z birikmasidan foydalanish ham muhimdir, chunki u zaruratga ko'ra yaxlit birlik sifatida nominativ shaklda qo'llanishi mumkin. A. M. Peshkovskiyning ushbu fikri va uning ilmiy asoslari kichik sintaksis lingvistik sohasini belgilashda ham muhim ahamiyatga ega. O'tli birikmalar o'zbek tilining sintaktik tizimida alohida o'rin tutadi. Ular tilning mazmuniy va grammatik boyligini ifodalovchi muhim vositalardan biri bo'lib, nutqda fikrni aniq, ixcham va mantiqan to'liq ifodalashga xizmat qiladi. O'tli birikmalarni o'rganish orqali til birliklarining o'zaro bog'lanish qonuniyatlari, semantik munosabatlari hamda funksional imkoniyatlarini chuqurroq anglash mumkin. O'tli birikma hokim bo'lagi ot yoki otlashgan birlik bilan ifodalangan sintaktik konstruktsiya bo'lib, unda boshqa komponentlar shu hokim bo'lakka tobelik asosida bog'lanadi. Ushbu birikmalar til tizimida nominativ vazifani bajarib, borliqdagi predmet va hodisalarni nomlash, aniqlash va tavsiflash imkonini beradi. Struktur jihatdan o'tli birikmalar ichki tashkil topishiga ko'ra murakkab sintaktik modelni namoyon etadi. Ularning tuzilishida hokim va tobe komponentlar o'rtasidagi munosabat qat'iy grammatik qoidalarga asoslanadi. Bu munosabatlar tilning morfologik vositalari orqali yoki so'z tartibi yordamida ifodalanadi. Bog'lanish mexanizmlariga ko'ra o'tli birikmalar bitishuv, boshqaruv va moslashuv asosida shakllanadi. Ushbu bog'lanish turlari tilning grammatik tizimini tashkil etuvchi muhim omillardan hisoblanadi. Har bir bog'lanish turi o'ziga xos sintaktik va semantik xususiyatlarga ega bo'lib, ular nutqda turli kommunikativ vazifalarni bajaradi. Semantik jihatdan o'tli birikmalar ko'p

---

<sup>57</sup>

Belyayivskiy A. Masterstvo Gogolya: Issledovanie. – M., 1996. – S. 51.



qatlamlı ma'no tizimini ifodalaydi. Ular predmet va uning belgisi, egalik munosabati, harakat va obyekt o'rtasidagi bog'liqlik, miqdoriy va darajaviy xususiyatlarni ifodalash imkoniyatiga ega. Shu sababli otli birikmalar tilning semantik strukturasi va mazmuniy tizimini o'rganishda muhim manba hisoblanadi. Otli birikmalar nutq jarayonida funksional jihatdan ham muhim rol o'ynaydi. Ular gap tarkibida turli sintaktik vazifalarda kelib, nutqning aniqligi va ifodaliligini ta'minlaydi. Ayniqsa, ilmiy va rasmiy uslubda otli birikmalar fikrni aniq va mantiqiy bayon qilishda keng qo'llaniladi. Zamonaviy tilshunoslikda otli birikmalar faqat grammatik nuqtai nazardan emas, balki kognitiv va pragmatik yondashuvlar asosida ham o'rganilmoqda. Bu yondashuvlar til va tafakkur o'rtasidagi bog'liqlikni ochib berishga xizmat qiladi hamda otli birikmalarning inson fikrlash jarayonidagi o'rnini aniqlashga yordam beradi. Otli birikmalar tilning muhim sintaktik birliklaridan biri bo'lib, ular struktur va semantik jihatdan murakkab tizimni tashkil etadi. Ularni chuqur o'rganish tilshunoslik fanining rivojlanishida hamda nutq madaniyatini yuksaltirishda muhim ahamiyatga ega. So'z birikmasining shakllanishi tilning ichki qonuniyatlariga asoslanadi. Har bir birikmada ma'lum bir grammatik aloqa mavjud bo'lib, bu aloqa bir so'zning boshqasiga nisbatan izohlovchi yoki to'ldiruvchi vazifada kelishi orqali yuzaga chiqadi. Shu sababli so'z birikmasi tarkibida hokim va tobe komponentlar ajratiladi. Hokim komponent asosiy mazmuni bildirsa, tobe komponent shu mazmuni aniqlashtiradi. O'zbek tilida so'z birikmalari turli yo'llar bilan hosil bo'ladi. Ular orasida boshqaruv, moslashuv va bitishuv kabi grammatik aloqalar muhim o'rin tutadi. Boshqaruvda hokim so'z tobe so'zning ma'lum kelishik shaklida kelishini talab qiladi. Moslashuvda esa so'zlar o'zaro shaxs-son jihatdan muvofiqlashadi. Bitishuvda esa so'zlar qo'shimchasiz, faqat tartib va ohang orqali bog'lanadi. So'z birikmalari nutqda fikrni kengaytirish va aniqlashtirish uchun xizmat qiladi. Masalan, oddiy "kitob" so'zi umumiy tushunchani bildirsa, "qiziqarli kitob" birikmasi shu tushunchani aniqlashtirib, uni boshqalardan ajratadi. Shu jihatdan so'z birikmasi nutqning ifodaliligi va aniqligini ta'minlaydi. So'z birikmasi gapdan tuzilish jihatidan farq qiladi. Gapda tugallangan fikr ifodalanadi va u kesimlik belgilariga ega bo'ladi. So'z birikmasi esa bunday tugallikka ega emas, u faqat nomlash yoki aniqlashtirish vazifasini bajaradi. Shu sababli so'z birikmasi gap tarkibiy qismi sifatida ham, mustaqil birlik sifatida ham qaralishi mumkin. Til tizimida so'z birikmalarining o'rne juda keng. Ular nafaqat oddiy nutqda, balki badiiy, ilmiy va rasmiy uslublarda ham faol qo'llaniladi. Ayniqsa, badiiy matnlarda so'z birikmalari orqali obrazlilik, ta'sirchanlik va ifodaviylik kuchaytiriladi. So'z birikmasi tilning dinamik jarayonida doimiy ravishda rivojlanib boradi. Yangi tushunchalar paydo bo'lishi bilan birga yangi birikmalar ham shakllanadi. Bu esa tilning boyib borishiga va fikr ifodalash imkoniyatlarining kengayishiga xizmat qiladi. V.P. Suhotinning asosiy g'oyasi so'z birikmasi shaklini ajratib ko'rsatishning ustuvor jihati so'z birikmasining asosiy va tobe qismlarining funksional moslashuvi bilan bog'liq bo'lgan so'z birikmasining ichki va tashqi shakllarini farqlash edi. Shunday qilib, V.P. Suhotin



tarkibiy qismlar o‘rtasidagi ichki munosabatlarni ifodalovchi so‘z birikmasining o‘ziga xos shaklini (masalan: oq qog‘oz, qog‘oz oq) va noto‘g‘ri yoki tashqi ko‘rinishini ajratib ko‘rsatadi, berilgan so‘z birikmalar gapning boshqa so‘zlari va so‘z birikmalari bilan munosabatiga qarab belgilanadi”.<sup>58</sup> Bundan kelib chiqadiki, kichik sintaksis munosabatlariga ko‘ra so‘z birikmasining ichki shakli, ya‘ni uning so‘z birikmasidagi ma‘naviy munosabatlarni belgilash vazifasi bilan shartlangan sintaktik “o‘zligi” tobe qismning bog‘lanishi, gapning sintaktik muloqoti asosiy nuqtai nazariga kirishini ta‘minlovchi tarkibining tegishliligi tashqi shaklidir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Turniyozov N.Q. “O‘zbek tili derivatsion sintaksisiga kirish”, – Samarqand, 1990.
2. Azimova M. O‘tli so‘z birikmalari va ularning derivatsion xususiyatlari. “SamDChTI” 2025.
3. Durnovo N. N. “Grammaticheskiy slovar: grammaticheskiei lingvisticheskie terminy”. – M., 2001.
4. Belyayiviskiy A. Masterstvo Gogolya: Issledovanie. – M., 1996.
5. Sayfullayeva R.R. Hozirgi o‘zbek tilida qo‘shma gaplarning substansional (zotiy) talqini. – Toshkent. 2007.

---

<sup>58</sup> Sayfullayeva R.R. Hozirgi o‘zbek tilida qo‘shma gaplarning substansional(zotiy) talqini. – Toshkent. 2007. – B. 37–38.